

O'RTA INGLIZ DAVRIDA QO'SHMA GAPLAR TUZILISHI
HAMDA ULARNING RIVOJLANISHI

Sodiqova Madinabonu Shavkatovna

Xorijiy filologiya fakulteti, xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)

yo'nalishi, 3-kurs talabasi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Toshkent shahri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jefri Choserning mashhur "The Canterbury Tales" asaridan olingan she'riy parchalar orqali O'rta ingliz davridagi qo'shma gaplarni o'rganishga harakat qilamiz. Shu bilan birga tarixiy-qiyosiy metoddan foydalangan holda qo'shma gaplarning O'rta ingliz davridagi va hozirgi strukturasi qiyoslab, farqli jihatlarni aniqlagach, bu shaklda rivojlanishiga sabab bo'lgan ayrim omillarni tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: O'rta ingliz davri, zamonaviy ingliz tili, tarixiy-qiyosiy metod, qo'shma gap, bog'lovchi, sintetik til, analitik til, so'z tartibi, qo'shimchalar, allomorfik jihat.

Ingliz tilining rivojlanish tarixida, avvalo, ushbu til taraqqiyoti bosqichlari muhim hisoblanadi. Umuman olganda, ingliz tili tarixi an'anaga ko'ra qadimgi, o'rta hamda yangi, ayrim manbalarda zamonaviy ingliz tili davrlariga bo'linadi. "There is a tradition of recognizing the Old English period (449-1066), the Middle English (1066-1475), and New English 15th century onwards. Henry Sweet classified them as The Period of Full Endings, the Period of Levelled Endings and the Period of Lost Endings[1;15]". Ko'plab jahon tilshunoslari, olimlar ingliz tilining lingvistik xususiyatlarini davrlar kesimida, qolaversa, qadimgi va o'rta asrlarga oid yozma yodgorliklarni o'rganish va tahlil qilish orqali tilning evolyutsiyasini, yuz bergan katta o'zgarishlarni aniqladilar. Masalan, Yakob Grimm, Verner, R.Rask kabi taniqli tilshunoslar ingliz tilining rivojlanishini, jumladan, qadimgi davrda yuz bergan fonetik o'zgarishlarni o'rganish davomida undoshlarning ko'chishi va boshqa tovush o'zgarishlarini kashf etdilar. Ko'plab tilshunos olimlar ingliz tilining rivojlanish tarixi, til birliklarining shakllanishi bo'yicha hamon tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Ushbu ilmiy ishimiz aynan o'rta ingliz davridagi gaplarning, xususan, qo'shma gaplarning sintaktik xususiyatlarini o'rganish hamda ularning tuzilishini zamonaviy ingliz tilidagi qo'shma gap strukturasi bilan qiyoslashga bag'ishlanadi.

Shu o'rinda o'rta asrlarda yashab o'tgan mashhur ingliz yozuvchisi Jefri Choserning "The Canterbury Tales" asaridan tahlil jarayonida foydalanildi. Bunda ushbu asarning asl matnidan olingan misollarni keyinchalik zamonaviy ingliz tiliga

moslashtirilgan varianti bilan birga tahlil qilindi. Bu asar she'riy shaklda yozilgan.

*Whanne that April with his shoures sote¹
The droughte of March hath perced to the rote,
And bathed every veine in swiche" licour,
Of whiche vertue engendred is the flour [2;1].*

*When that April with his showers sweet
The drought of March has pierced root deep,
And bathed each vein with liquor of such power
That engendered from it is the flower [6].*

Yuqoridagi parchadan biz o'rta ingliz davridagi so'zlar, ulardagi ayrim tovushlarning hozirgisidan farqlanishini osongina payqash mumkin. Misol uchun, *whanne* – *when*, *shoures* – *showers*, *sote* – *sweet*, *droughte* – *drought*, *hath* – *has*, *perced* – *pierced*, *veine* – *vein*, *flour* – *flower* kabi so'zlarda fonetik o'rgarishlar sodir bo'lgan. Endi gap tuzilishiga e'tibor qaratsak. Ushbu misolda bir nechta sodda gapdan tashkil topgan murakkab qo'shma gap mavjud. Uni qismlarga bo'lib tahlil qilsak. Birinchi qo'shma gap *whanne*(*when*) payt bog'lovchisi bilan bog'langan ergashgan qo'shma bo'lib, u *and* teng bog'lovchisi yordamida keyingi ergashgan qo'shma gapga bog'langan. She'riy asar zamonaviy ingliz tiliga moslashtirilganda gap tuzilishi deyarli o'zgartirilmagan, bu esa o'quvchilarga asarning asl mazmuni va shaklidan estetik zavq olish imkonini beradi.

*And smale foules¹ maken melodie,
That slepen alle night with open eye [2;2].*

*And little birds are making melody,
Who all the night with open eye do sleep [6].*

Bu misolda esa "relative clause" qatnashgan qo'shma gapni ko'ramiz. O'rta ingliz davrida bu turdagi, ya'ni ega ergash gapli qo'shma gap *that* bog'lovchi vazifasidagi olmosh bilan bog'langan bo'lsa, hozirgi ko'rinishida *who* bilan bog'langan. Bu holatni keyingi misolda ham kuzatishimiz mumkin.

*The holy blisful martyr for to seke,
That hem hath holpen, whan that they were seke [2;2].
The holy blissful martyr there to seek,
Who had aided them when they were sick [6].*

Oʻrta asrlardagi *That hem hath holpen* gapi hozirda *Who had aided them* koʻrinishida, yaʼni *hem*(them) toʻldiruvchi vazifasidagi kishilik olmoshi oʻrta davrda feʼldan oldin kelgan boʻlsa, hozirda feʼldan keyin joylashgan. Bu oʻrinda qadimgi ingliz tilining taʼsiri ham namoyon boʻladi, negaki, qadimgi ingliz tili sintetik tillardan hisoblanadi. Zamonaviy ingliz tili esa analitik. Ularning farqini yurtimizning taniqli tilshunos olimi M.Iriskulov shunday tushuntiradilar: "The synthetical-flexional languages are rich in grammatical inflections and the words in sentences are mostly connected with each-other by means of these inflections though functional words and other grammatical means also participate in this. But the grammatical inflections are of primary importance. The flecional-analytical languages like English and French in order to connect words to sentences make wide use of the order of words and functional words due to the limited number of grammatical flexions. The grammatical means - order of words – is of primary importance for this type of languages" [3;9]. Demak, qadimgi ingliz tilida soʻzlarning gapdagi tartibiga qaraganda ulardagi qoʻshimchalar muhimroq hisoblangan va asosiy grammatik maʼnoni bergan. Zamonaviy ingliz tilida esa, aksincha, gapda soʻzlarning joylashish tartibi qatʼiy va bu orqali ularning grammatik vazifasini aniqlash mumkin. Hozirgi ingliz tilida gap strukturasi asosan quyidagi koʻrinishida boʻladi:



yaʼni toʻldiruvchi doim kesimdan keyin keladi. Bu farq keyingi misolda ham kuzatiladi.

*And made forword erly for to rise,
To take oure way ther as I you devise* [2;3].

*Agreeing I would make an early rise,
To take our way there, as I now advise* [6].

Yana shuni ham taʼkidlab oʻtish joizki, oʻrta ingliz davrida *I you devise* koʻrinishida yaʼni olmoshning feʼldan oldin joylashishiga sababchi boʻlgan yana bir omil bor. Bu oʻrta asrlarning boshida Fransiya Angliyani bosib olishi natijasida anglo-norman shevasining paydo boʻlgani va ingliz tiliga sezilarli taʼsir oʻtkazganidir. Hatto hozirda ham fransuz tilida toʻldiruvchi vazifasidagi olmoshlarning feʼldan oldin joylashishi bunga yaqqol dalil hisoblanadi. Biroq nega shu tuzilish ingliz tilida ham saqlanib qolmadi? Bu keyinchalik uch til: lotin, fransuz va ingliz tillari orasida boʻlgan urush hamda ingliz milliy tilining yoki London shevasining shakllanishi kabi bir qator ichki va tashqi omillar bilan bogʻliq.

Xulosa qilib aytganda, biz tahlil jarayonida guvohi bo‘lganimizdek, o‘rta ingliz davridagi qo‘shma gap, xususan, gap tuzilishi hozirgi shakllarga deyarli o‘xshab ketishi bilan bir qatorda, bir qancha farqli jihatlari ham mavjud. O‘rta asrlardagi ingliz tilida so‘zlarning tovushlari, boshqacha qilib aytganda, imlosidagi tafovutlarni ko‘rish mumkin. Gap tuzilishida ham ba‘zi noo‘xshashliklar mavjudligini tahlil jarayonida kuzatdik. Bundan tashqari ingliz tili lug‘atida ham sezilarli o‘zgarishlar yuz bergani ham ma’lum. Ushbu o‘zgarishlarga asosiy sabab ingliz tilining rivojlanishida ichki va tashqi omillar, ya’ni turli tarixiy voqealar: bosqinchiliklar, urushlar hamda tilning ichki rivojlanishidagi ta’sirlardir, desak, bizningcha, to‘g‘ri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L. Verba. History of the English language. –Novaknyha., 2004.
2. Geoffrey Chaucer. The Canterbury Tales. –London.
3. A.T. Iriskulov. Theoretical Grammar of English. –Tashkent., 2006.
4. O‘tkir Yusupov. Ingliz va o‘zbek tillarining chog‘ishtirma lingvistikasi. –T., 2013.
5. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –T., 2016.
6. <https://www.poetryintranslation.com/PITBR/English/CanterburyTalesI.php>